

**NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD 03/30.12.2019.T.90.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

XUDAYBERDIYEVA MAXLIYO ABDUKAXOROVNA

**TO‘QUV DASTGOHI QAYISHQOQ ELEMENTLI BATAN MEXANIZMI
KONSTRUKSIYASINI ISHLAB CHIQISH VA STRUKTURAVIY,
KINEMATIK VA DINAMIK TAHLILI**

05.02.02–Mexanizmlar va mashinalar nazariyasi. Mashinashunoslik va mashina detallari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan-2025

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Xudayberdiyeva Maxliyo Abduka xorovna

To'quv dastgohi qayishqoq elementli batan mexanizmi konstruksiyasini ishlab chiqish va strukturaviy, kinematik va dinamik tahlili..... 3

Худайбердиева Махлиё Абдука хоровна

Разработка конструкции и структурной кинематический, динамический анализ батанного механизма с упругими элементами ткацкого станка 21

Khudayberdiyeva Makhliyo Abdukakhorovna

Design development and structural kinematic, dynamic analysis of the baton mechanism with elastic elements of the loom..... 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 44

**NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD 03/30.12.2019.T.90.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

XUDAYBERDIYEVA MAXLIYO ABDUKAXOROVNA

**TO‘QUV DASTGOHI QAYISHQOQ ELEMENTLI BATAN MEXANIZMI
KONSTRUKSIYASINI ISHLAB CHIQISH VA STRUKTURAVIY,
KINEMATIK VA DINAMIK TAHLILI**

05.02.02–Mexanizmlar va mashinalar nazariyasi. Mashinashunoslik va mashina detallari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan-2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/T3722 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro muhandislik texnologiya institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) ilmiy kengashning veb-sahifas (www.namdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Djurayev Anvar Djurayevich texnika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Kenjaboyev Shukurjon Sharipovich texnika fanlari doktori, professor Sobirov Xolxuja Abbozovich texnika fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	Farg'ona davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan muhandislik-qurilish instituti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.T.90.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "22" 10 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160103, Namangan, Islom Karimov ko'chasi, 12-uy.
Tel: (+99869) 234-15-23, faks: (+99869) 234-15-23, e-mail: info@namdu.uz)

Dissertatsiya bilan Namangan muhandislik-qurilish instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (67 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 160103 Namangan., Islom Karimov ko'chasi, 12-uy. Tel.: (+9969) 234-15-23, faks (+99869)234-15-23, e-mail: info@namdu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "02" 10 kuni tarqatildi.
(2025-yil "31" 05 dagi № 32 raqamli reyestr hayonnomasi).



N.G'.Buyboboyev
daraja beruvchi ilmiy
kengash raisi, t.f.d., professor

V.M.Turdaliyev
ilmiy daraja beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
t.f.d., professor

A.X.Umurzakov
ilmiy daraja beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
t.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD)dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda chidamliligi yuqori va bir xil zichlikdagi to‘qimachilik matolarini ishlab chiqarishni ta’minlaydigan mashinalar ishchi organlarining konstruksiyalarini modernizatsiyalash, ish unumini oshirish, yangi turlarini yaratish hamda ularni korxonalariga keng joriy etish yetakchi o‘rinlardan birini egallamoq. Shu boisdan aholini sifatli gazlamalar bilan ta’minlashda to‘quv dastgohlarining o‘rni beqiyosdir. “Dunyo to‘qimachilik bozorida gazlamalarni ishlab chiqarish yiliga 120 mlrd m³ ni tashkil etishini inobatga olsak”¹ gazlama tayyorlash texnologik jarayonlarini modernizatsiyalash va samaradorligini oshirish maqsadida ishchi organlarga tebranma harakat beradigan mexanizmlardan foydalanish va ularni ishlab chiqarishga joriy etish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli to‘quv dastgohlarini takomillashtirishda energiya va resurstejamkor ishchi organ va uzatish mexanizmlardan foydalanishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Jahonda to‘qimachilik sanoati jadallik bilan rivojlanib, imkoniyatlari kengaymoqda. Bu esa mashinalarning uzatish mexanizmlari, kinematik imkoniyatlari yuqori hamda texnologik jarayonlarda ishonchli ishlaydigan batan mexanizmlarining yangi ilmiy-texnik yechimlarini ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishni taqozo etmoqda. Bu borada texnologik mashinalarning uzatish mexanizmlarini samaradorligini oshirishning ilmiy yechimlari yaratilmoqda, to‘quv dastgohlari uzatish mexanizmlarida qo‘llanadigan texnologik jarayonni jadallashtiradigan batan mexanizmlarining konstruksiyalarini va hisoblash usullarini ishlab chiqish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, zamonaviy texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishga keng joriy etish orqali to‘qimachilik mahsulotlari sifatini yaxshilash va tannarxini kamaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan to‘qimachilik korxonalarida ishlatiladigan to‘quv dastgohlarining ishchi qismlarini takomillashtirish konstruksiyasini ishlab chiqish va ishchi organlariga kerakli harakat berishini ta’minlaydigan qayishqoq elementli kulachokli mexanizmini samarali konstruksiyalarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizning ko‘plab sohalarida ishlab chiqarishni rivojlantirish, energiyatejamkorlikni ta’minlay oladigan mashina va mexanizmlarni yangi turlarini loyihalash va takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. Jumladan, to‘qimachilik mashinasozligi uchun resurstejamkor mashinalarning yangi avlodlarini ishlab chiqish bo‘yicha bir qator chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonalarini va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish”² vazifalari belgilab berilgan. Shu nuqtai nazardan sifatli kiyim-kechak mahsulotlari bilan ta’minlash maqsadida yurtimizda ishlab chiqarilayotgan gazlamalarning sifatini jahon standartlari talablariga qadar yaxshilash hamda ishlab chiqarilayotgan mahsulot tan narxini pasaytirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

¹ earchgate.net/publication/357901414

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-son Farmoni

Mazkur dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni, 2019 yil 12 fevraldagi PQ-4186-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, 2024 yil 1 maydagi "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-71-son Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli barcha me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II "Energetika, energiya va resurs-tejamkorlik" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahonda to'quv dastgohi va batan mexanizmining ishlash jarayoni, to'qimachilik mexanizmlarini avtomatlashtirish, sensorli boshqaruv, yuqori unumli ishlab chiqarish va zamonaviy materiallar asosida dastgohlar loyihalashga oid xorijda bir qancha olimlar A.O.Terexina, Z.Zhonghuan, Y.Shih, E.O'nder va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa, to'qima to'qish jarayonida iplarga ta'sir etuvchi kuchlar, dastgohning ishchi organlariga ta'sir etuvchi kuchlanishlarni o'rganishga yo'naltirilgan ko'plab ilmiy tadqiqot ishlar M.Mansour, M.N.Mohamed, A.S.BuUerwell, Dj.Alberg, E.Nilson, M.V.Lukon, V.A.Surov, O.V.Maksimchuk, E.V.Bulatnilov, V.A.Ornatskaya, S.S.Kivilis, S.V.Lushnikov, Dj.Uomilar tomonidan olib borilgan. Mushtumchali mexanizmlarni loyihalashga doir dunyo bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, Ye.V.Ribnikova, mushtumchali mexanizmlarni dinamik sintezi va xususiyatlari bo'yicha mashina agregatining ish sharoitlariga muvofiq tanlangan sifat mezonlari asosida mexanizmning harakat qonunlari va parametrlarini optimallashtirishni tadqiqot ishida keltirib o'tgan.

O'zbekiston Respublikasidan bir qator olimlar E.Sh.Alimboyev, A.Daminov, R.I.Karimov, S.S.Raximxodjayev, P.S.Siddiqov, A.Djurayev, O.A.Axunbabayev, B.K.Xasanov, D.N.Qodirova kabi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan va to'qimachilik sohasi rivojiga munosib hissa qo'shishgan.

Mazkur tadqiqotlar natijasida to'quv dastgohi va unung batan mexanizmiga oid ko'plab ilmiy ishlar olib borilgan, lekin sifatli to'qimalarni olish uchun batan mexanizmi berdosiga kerakli harakat qonunlarini amalga oshirish ko'rib chiqilmagan. Shu bilan birga hosil qilinayotgan to'qimalarning kengligi, matolarning turlari, shakllari, iplarga ta'sir qiluvchi ayrim omillar, batan mexanizmining ayrim elementlariga tushadigan inertsion va dinamik yuklanishlar inobatga olinmagan. Shuningdek qayishqoq elementli mushtumchali batan mexanizmini ishlab chiqarish, sifatli to'qimalarni olish bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat texnika universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq hamda, YOT-Ftex-2018-52 "Sifatli gazlamalarni olish uchun to'quv mashinasi energiya to'plovchi

richagli batan mexanizmi konstruksiyasini ishlab chiqish va parametrlarini hisoblash” (2018) mavzusidagi loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yuqori sifatli to‘qimalarni olish uchun to‘quv dastgohining qayishqoq elementli mushtumchali resurstejamkor batan mexanizmi konstruksiyasini takomillashtirish, kerakli harakat qonunlarini ta’minlaydigan parametrlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tarkibli mushtumchali va qayishqoq elementli, energiya to‘plovchi prujinali batan mexanizmini samarali konstruksiyalarini ishlab chiqish;

batan mexanizmini sharnirlaridagi strukturaviy tahlil asosida ortiqcha bog‘lanishlarni yo‘qotish usulini yaratish;

qayishqoq elementli batan mexanizmi kinematik tahlili asosida koromislosini (berdo) kerakli harakat qonunlarini aniqlash;

batan mexanizmi harakat qonunini ifodalovchi matematik modelni qayishqoq elementlar maksimal deformatsiya qiymatlarini hisobga olgan holda aniqlash, batan mexanizmining prujinali energiya to‘plovchi uch yelkali richagini tebranishlarini aniqlash, sonli yechimi asosida berdoni kerakli trayektoriyasini olish;

to‘quv dastgohining modernizasiya qilingan batan mexanizmi berdosini arqoq ipga ta’sir kuchi, bosh valning aylanishlar soni va burovchi momenti o‘zgarish qonuniyatlarini tajriba usulida aniqlash;

ko‘p omilli tajribalar asosida batan mexanizmi parametrlarini maqbul qiymatlarini aniqlash;

tavsiya etilgan batan mexanizmli to‘quv dastgohini qiyosiy ishlab chiqarish sinovlarini o‘tkazish va ish ko‘rsatkichlarini aniqlash hamda uni ishlab chiqarishga qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish hamda iqtisodiy samaradorlikka erishish.

Tadqiqotning ob‘yekti sifatida to‘quv dastgohi va modernizasiya qilingan batan mexanizmi olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida texnologik jarayonlarning parametrlari, arqoq ipni to‘qima qirg‘og‘iga jiplashda iplarning turlicha deformatsiyalanishi va keng turdagi to‘qimalar, matematik modellar hamda tavsiya parametrlari olingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida to‘qimalar tuzilishini nazariy asoslari va nazariy mexanika, oliy matematika, mashina detallari, to‘qimachilik texnikalarini sinash, tenzometriya usuli hamda umumiy tadqiqot natijalarini olish imkonini beruvchi matematik statistika usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

to‘quv dastgohida ishlov berilayotgan to‘qimadagi arqoq ipini bir xildagi zichligini ta’minlaydigan koromislarning harakat qonunini amalga oshiradigan, energiya to‘plovchi prujina bilan jihozlangan tarkibli mushtumchali va konturmushtumchali batan mexanizmining konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

tarkibli mushtumchali va konturmushtumchali batan mexanizmini strukturaviy tahlil qilishda qo‘zg‘aluvchanlik darajasini aniqlash va kinematik juftlardagi ortiqcha bog‘lanishlarni bartaraf etish usuli takomillashtirilgan;

mushtumchali mexanizmga ekvivalent bo‘lgan almashtirilgan richagli mexanizm tarkibidagi shatun va koromislarning tebranish qamrovlarini aniqlash imkonini beradigan formulalar tarkibli kinematik juftlaridagi qayishqoq elementning chegaraviy deformatsiyalarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan;

batan mexanizmining uch yelkali richagini tebranish qonuniyatlari, sifatli

to‘qimani hosil qilish uchun arqoq ipini bir xil zichlashda bo‘lishini ta‘minlaydigan berdoni yuqorida turish va kichik tebranish trayektoriyasini belgilaydigan parametrlarining qiymatlari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

to‘quv dastgohida qayishqoq elementli, energiya to‘plovchi prujinali yangi konstruksiyali batan mexanizmini qo‘llab, yuqori sifatli va mustahkam to‘qimalar namunalari tayyorlangan;

tavsiya etilgan resurstejamkor mushtumchali batan mexanizmi qiyosiy ishlab chiqarish sinov natijalariga asosan ishlab chiqilgan gazlamani uzish kuchini 1,5 barobar ortishiga, bosh valdagi yuklanish esa 1,3 marotaba kamayishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ularning mavjud va amal qilayotgan fundamental nazariyaga mantiqan muvofiq kelishi, hisob-kitoblarda standartlashtirilgan usul va vositalardan foydalanilganligi, olingan natijalarni real iqtisodiy samara bilan ishlab chiqarishga joriy qilinishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati to‘quv dastgohi batan mexanizmining resurstejamkor, qayishqoq elementli yangi konstruksiyasini ishlab chiqilganligi, batan mexanizmi berdosining yo‘l, tezlik, tezlanish qiymatlari aniqlanganligi va bog‘lanishlari olinganligi hamda kompleks izlanishlar asosida mexanizmning parametrlari asoslanganligidan iborat.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qayishqoq elementli batan mexanizmi yaratilganligi va uni qo‘llaganda ish unumi, dastgohning ishlash muddati ortganligi, energiya va resursni tejalanganligi, yuqori sifatli to‘qimalar olish uchun resurstejamkor mexanizmlarni taklif etish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. To‘quv dastgohi mushtumchali batan mexanizmi konstruksiyasini takomillashtirish va parametrlarini asoslash bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tarkibli mushtumchali va qayishqoq elementli, energiya to‘plovchi prujinali batan mexanizmi Buxoro viloyati Kogon tumanidagi “Kogon Nur Teks” MCHJ korxonasi Rossiya Federatsiyasida ishlab chiqarilgan STB rusumli to‘quv dastgohiga joriy etilgan. (“O‘zto‘qimachilik sanoati” uyushmasining 2024-yil 20-noyabrda 03/25-3123-son ma‘lumotnomasi). Natijada elektr energiyasi sarfi 4,0 % gacha kamaygan, ish unumi esa 6,5 % ga oshirishga erishilgan;

tarkibli mushtumchali va qayishqoq elementli, energiya to‘plovchi prujinali batan mexanizmi Buxoro viloyati Kogon tumanidagi “ALP TEXTILE” MCHJ korxonasi Belgiyada ishlab chiqarilgan Picanol markadagi optiMax-i to‘quv dastgohiga joriy etilgan. (“O‘zto‘qimachilik sanoati” uyushmasining 2024-yil 20-noyabrda 03/25-3123-son ma‘lumotnomasi). Natijada elektr energiya sarfi 3,0 % gacha kamaygan, ish unumi esa 5,0 % ga oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot ishining asosiy holatlari va natijalari ilmiy-texnika konferensiyalarda, shuningdek 4 ta xalqaro va 7 ta respublika miqyosida ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda hamda

O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining 1 ta patent olingan.


Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 113 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti bayon qilingan, Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy yo‘nalishlariga mutanosibli keltirilgan, tadqiqotlarning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarining amalda qo‘llanilishi bo‘yicha ma’lumotlar, chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Mushtumchali mexanizmlarning konstruktiv xususiyatlari va ularni takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida mushtumchali mexanizmlar konstruksiyalarini takomillashtirish bo‘yicha bajarilgan ishlar va hisoblash uslublari tahlili, mushtumchali mexanizmlarni konstruktiv xususiyatlari, to‘quv dastgohlarining mushtumchali batan mexanizmlari konstruktiv sxemalari va ilmiy ishlar tahlili keltirilgan. Tarkibli mushtumchali va qayishqoq elementli kinematik juftlari bo‘lgan mushtumchali batan mexanizmi sxemalari keltirilgan.

Mushtumcha 2 va unga biriktirilgan konturmushtumcha 3 lar aylanma harakatni bosh val 4 dan oladi. Bunda uch yelkali richag (turtkich) rolik 5 va 6 larning mushtumcha 2 va 3 larni profili bilan doimiy birikishda bo‘lishi hisobiga tebranish harakatini oladi. Ushbu harakat brus 10 ga (richagning yelkachi 7 ga) berdo 11 orqali uzatiladi (1-rasm).



1- rasm. Tarkibiy rolikli va energiyani to‘plovchi prujinali mushtumchali batan mexanizmi

Batan mexanizmining ishlashi jarayonida tarkibiy rolik 5 va 6 lar mushtumcha 2 va konturmushtumcha 3 larning profillari bilan birikishda bo‘ladi va yuqori bosim kuchi hosil bo‘ladi. Qayishqoq rezina vtulka 13 va 14 lar deformatsiyalanib rolik 5 va 6 lar bilan mushtumcha 2 va 3 lar orasidagi bosim kuchlarini amortizatsiyalaydi. Ushbu kuchlarning maksimal qiymatlari

arqoq ipini urish vaqtida hosil bo‘ladi.


Mushtumcha 2 tarkibiy rolik 6, uch yelkali richag brusining yelkasi 7, brus 10, berda 11 lar orqali arqoq ipini urishni asosiy jarayonini ta‘minlaydi. Shuning uchun qayishqoq rezina vtulka 13 ning qalinligi qayishqoq rezinali vtulka 14 ning qalinligiga nisbatan ikki marotaba ko‘p.

Bundan tashqari berdo 11 bilan brus 10 ning soat strelkasiga qarshi yo‘nalishda (salt yurish) tebranishida buralish prujinasi 15 buraladi va energiyani to‘playdi, ishchi rejimda esa, brus 10 berdo 11 bilan birgalikdagi soat strelkasining yo‘nalishi bo‘ylab (urilish jarayoni) prujina 15 buraladi va to‘plangan energiyani beradi, natijada berdo 11 ipni yetarli kuch bilan uradi. Bu mexanizmning ipni urilish rejimi jarayonida kerakli quvvatga bo‘lgan ehtiyojini kamaytirishga olib keladi. Bundan tashqari mashinalarning ish unumdorligini oshirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Ushbu batan mexanizmida rezinali vtulkalar deformatsiyasi hisobiga ipni zichlashda biroz berdoni turishi va kichik amplitutada tebranishini ta‘minlaydi, sifatli to‘qimalar hosil qilanadi.

Shuningdek ishlab chiqilgan yangi qayishqoq elementli batan sxemasi 2-rasmda keltirilgan.

Batan mexanizmi quyidagi tartibda ishlaydi. Mushtumcha 1 va unga rezinali vtulka 11 orqali bog‘langan konturmushtumcha 2 lar harakatni bosh val 3 dan qayishqoq rezinali vtulka 4 orqali oladi. Bunda uch yelkali richag turtkichga tebranma harakatni rolik 5 ni mushtumcha 1 va 2 ning profili bilan doimiy birikishda bo‘lishi hisobiga oladi. Ushbu harakat richagning brus 9 va berdo 10 li yelkasiga uzatiladi. Richag 6 ning qaytma-tebranma harakatida muvozanatlanmagan inertsiya kuchlari kinematik juftliklardagi reaksiyani, asosan batan vali 7 ning tayanchlarida ortishiga olib keladi.



2- rasm. Tarkibiy mushtumcha va qayishqoq elementli kinematik juftliklar bilan jihozlangan mushtumchali batan mexanizmi

Ushbu inertsiya kuchlari qayishqoq rezinali vtulka 8 tomonidan amortizatsiyalanadi. Bundan tashqari batan mexanizmining ishlash jarayoniga rolik 5 larning mushtumcha 1 dan konturmushtumcha 2 ga tez-tez o‘tishi hisobiga mexanizmida zarblar paydo bo‘ladi, bu esa yuqori darajali shovqin va titrashni hamda batan vali 7 ning tayanchlarida reaksiya kuchlarning paydo

bo'lishiga sabab bo'ladi. Bunda rolik 5 larning mushtumcha 1 va konturmushtumcha 2 lar bilan zarbli ta'sirlanishi qayishqoq rezinali vtulka 4 tomonidan amortizatsiyalanadi.

Bundan tashqari, qayishqoq rezinali vtulka 11 mushtumcha 1 va konturmushtumcha 2 larning harakatlanishida hosil bo'luvchi teng ta'sir etuvchi inertsia kuchlarini amortizatsiyalashni ta'minlaydi. Bu esa batan mexanizmi bosh vali 3 ning bir maromli aylanishini ta'minlaydi va ishonchlilikni oshiradi. To'quv dastgohi batan mexanizmining tezlik rejimlarini oshirish va sifatli to'qima olish imkoniyati paydo bo'ladi.

Kinematik imkoniyatini kengligi va sodda konstruksiyaga egaligi inobatga olinib, ishlab chiqilgan sxemalarni birinchisi (1-rasm) tavsiya etiladi, hamda tadqiqotlar amalga oshiriladi.

Dissertasiyaning **“O'zgaruvchan parametrli va qayishqoq elementli mushtumchali mexanizmlarning strukturaviy, kinematik va dinamik tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida mushtumchali mexanizmlar harakatlanganlik darajasi va ortiqcha bog'lanishlarni aniqlash usulini ishlab chiqish, o'zgaruvchan parametrli mushtumchali mexanizmlarning kinematik tahlili natijalari, ellipssimon va eksentrik rolikli mushtumchali mexanizmlarni metrik sintezi hamda to'quv dastgohi tarkibli roliklar bilan jihozlangan mushtumchali mexanizm kinematik tahlili keltirilgan. Batan mexanizmi uch yelkali richak tebranish qonuniyatlari va energiya to'plovchi prujina bikirligini aniqlash formulasi keltirilgan.

Ma'lumki, ortiqcha bog'lanishlar kinematik juftliklar o'qlarining parallelligi sababli paydo bo'ladi. Bunda kinematik juftliklarda yuqori reaksiya kuchlari hosil bo'lib, uni ishdan chiqishiga sabab bo'ladi. Ortiqcha bog'lanishlarni bartaraf etish uchun odatda tegishli kinematik juftliklarning sinfini pasaytiriladi. Ortiqcha bog'lanishlarni bartaraf etish uchun biz tomonimizdan tarkibiy qayishqoq elementli sharnirlarni qo'llash tavsiya etiladi. Bunda har bir koordinata yoki qayishqoq elementlarning deformatsiyalanish yo'nalishlari mexanizmdagi bitta ortiqcha bog'lanishni bartaraf etadi.

Tavsiya etilayotgan mexanizmdagi ortiqcha aloqalarni aniqlash uchun quyidagi formula tavsiya etiladi:

$$q = W - 6n + 5P_5 + 4P_4 + 3P_3 + 2P_2 + P_1 - K, \quad (1)$$

bunda K – mexanizm kinematik juftliklaridagi qayishqoq elementlarning soni yoki ularning deformatsiyalanish koordinatalari.


Mexanizmdagi ortiqcha bitta bog'lanish to'quv dastgohi batan mexanizmining ish resursini yetarli darajada kamaytiradi.

Ortiqcha bog'lanishlarni bartaraf etish uchun mexanizmda roliklar qo'llanilgan bo'lib ular qayishqoq vtulkalar bilan tarkibiy holda tayyorlangan hamda uch yelkali richak sharnirida prujina o'rnatilgan. Bunda:

$$q = 1 - 6 \cdot 2 + 5 \cdot 2 + 4 \cdot 1 - 3 = 0.$$

Mushtumchali batan mexanizmining ushbu varianti (1-rasm) mavjud batan mexanizmlari konstruksiyalariga nisbatan ish resursini ikki marotaba oshirishga imkon beradi.

O'zgaruvchan parametrli rolikli mushtumchali mexanizmlar kinematik tahlili analitik usulda ko'rib chiqilgan, sonli yechim asosida turtgichning bir qator harakat qonunlari aniqlandi. Ellipssimon mushtumchali mexanizmi turtgich harakat qonuniga asosan sintez masalasi yechildi, ya'ni ellips parametrlarini aniqlash formulalari olindi.



3-rasm. To‘quv dastgohi batanini mexanizmining mushtumchali mexanizmini almashtirish sxemasi

va φ_3 larni aniqlash uchun ifodaga ega bo‘ldik. :

Burchak siljishlarning qonuniyatlarini quyidagi ko‘rinishda hosil bo‘ladi

$$\varphi_3 = \arccos \frac{l_1^2 - l_2^2 + l_3^2 + l_4^2 - 2l_1l_4 \cos \varphi_1}{2l_3 \sqrt{l_1^2 + l_4^2 - 2l_1l_4 \cos \varphi_1}} + \arctg \frac{l_1 \sin \varphi_1}{l_4 - l_1 \cos \varphi_1},$$

$$\varphi_2 = \arccos \frac{l_1^2 + l_2^2 - l_3^2 + l_4^2 - 2l_1l_4 \cos \varphi_1}{2l_2 \sqrt{l_1^2 + l_4^2 - 2l_1l_4 \cos \varphi_1}} + \arctg \frac{l_1 \sin \varphi_1}{l_4 - l_1 \cos \varphi_1}. \quad (2)$$

Qayishqoq elementning deformatsiyasini hisobga olgan holda to‘quv dastgohi batan mexanizmining povodok (shatun) va berdosi (koromislo) uzunligi $\Delta\varphi_2$ va $\Delta\varphi_3$ larning qiymatlarini aniqlash davriy ko‘rinishda bo‘ladi deb hisoblanadi.

Bunda $\Delta\varphi_3$ va $\Delta\varphi_2$ larni o‘zgarish chegaralari:

$$\Delta\varphi_3 = \frac{1}{2} \left[\begin{array}{l} \arccos \frac{l_1^2 + l_4^2 - 2l_1l_4 \cos \varphi_1 + (l_3 + \Delta l_3)^2 - (l_2 + \Delta l_2)^2}{2(l_3 + \Delta l_3) \sqrt{l_1^2 + l_4^2 - 2l_1l_4 \cos \varphi_1}} - \\ - \arccos \frac{l_1^2 + l_4^2 - 2l_1l_4 \cos \varphi_1 + (l_3 - \Delta l_3)^2 - (l_2 - \Delta l_2)^2}{2(l_3 - \Delta l_3) \sqrt{l_1^2 + l_4^2 - 2l_1l_4 \cos \varphi_1}} \end{array} \right],$$

$$\Delta\varphi_2 = \frac{1}{2} \left[\begin{array}{l} \arccos \frac{l_1^2 + l_4^2 - 2l_1l_4 \cos \varphi_1 + (l_2 + \Delta l_2)^2 - (l_3 + \Delta l_3)^2}{2(l_3 + \Delta l_3) \sqrt{l_1^2 + l_4^2 - 2l_1l_4 \cos \varphi_1}} - \\ - \arccos \frac{l_1^2 + l_4^2 - 2l_1l_4 \cos \varphi_1 + (l_2 - \Delta l_2)^2 - (l_3 - \Delta l_3)^2}{2(l_3 - \Delta l_3) \sqrt{l_1^2 + l_4^2 - 2l_1l_4 \cos \varphi_1}} \end{array} \right]. \quad (3)$$

Mushtumchali mexanizmning tarkibiy roligi rezinalarining deformatsiyalanishi hisobga koromislarning uchi (berdo) kerakli harakat qonuniyatini bajaradi. Bunday holda rolikning rezina vtulkalarini maksimal deformatsiyasi (siqilish va cho‘zilish) ni hisobga olgan holda koromislo harakatining qonunlarini aniqlash muhimdir. Ushbu mushtumchali mexanizmning kinematikasini ko‘rib chiqamiz. Buning uchun 4-sinf kinematik juftni beshinchi sinfdagi aylanma kinematik juftga almashtirilgan kinematik tahlili qurildi (3-rasm).


Tavsiya etilayotgan mushtumchali mexanizm ko‘rsatilgan, ma’lum bo‘lgan yopiq vektorlar uslubini qo‘llab, burchak siljishlar φ_2

3- rasmdagi sxemaga asosan quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\varphi_{3\max} = \varphi_3 + \Delta\varphi_3, \quad \varphi_{3\min} = \varphi_3 - \Delta\varphi_3,$$

$$\varphi_{2\max} = \varphi_2 + \Delta\varphi_2, \quad \varphi_{2\min} = \varphi_2 - \Delta\varphi_2. \quad (4)$$

Olingan 4-rasmdagi grafikni tahlili r va l uzunliklar koromislarning tebranish amplitudasi va shakliga sezilarli darajada ta'sir qilishini ko'rsatdi. Koromislarning tebranish amplitudasiga, r ning qiymati ta'sir ko'rsatadi. Bunda krivoship mexanizmining radiusi (mushtumcha profilining minimal radiusi) 0,0685 m.da koromislarning burchak siljishi 0,34 rad.ga yetadi, r=0,0885 m bo'lganida koromislarning burchak siljishi 0,44 rad.ga ortadi. Berdoni 0,44 rad bo'lgan tezligi o'zgarishi uchun qayishqoq element aylanma bikirligi $(0,52 \div 0,56) \cdot 10^4$ Nm/rad bo'ladi.




4- rasm. Qayishqoq elementning deformatsiyalanishini hisobga olgan holda koromislo burchak siljishining qonuniyatlari


To'quv dastgohi batan mexanizmi roliginining rezinali vtulkasining maksimal deformatsiyalanishidan berdonning burchak siljishi qonuniyatlarini ishlashini olingan natijalariga asosan quyidagilarga ega bo'lamiz.

5-rasmda urilish zonasida koromislarning burchak siljish miqyosi qiymatining mushtumchali mexanizm rezinali vtulkasining deformatsiyalanish qiymatiga nisbatan o'zgarishining bog'iqliq grafigi ko'rsatilgan.

Grafiklarni tahlili, rezinali vtulkaning deformatsiyalanish qiymatini oshirish, koromislarning kichik holatida chiziqli bo'lmagan qonuniyat asosida siljishning ortishiga olib kelishini ko'rsatdi. Bunda $\Delta\varphi_3'$ ning qiymati $\Delta_3= 9,0\%$ bo'lganida $3,1^\circ$ ga yetadi. $\Delta\varphi_3' \leq (1,0^\circ \div 1,5^\circ)$ zonada koromislarning kerakli turg'unlik va



5- rasm. Urilish zonasida koromislarning burchak siljish miqyosi qiymatining mushtumchali mexanizm rezinali vtulkasining deformatsiyalanish qiymatiga nisbatan o'zgarishining bog'liqlik grafiklari



6- rasm. Batan richagining sharnirida o'rnatilgan prujina ko'rinishidagi energiya to'plovchining joylashuv sxemasi

tebranishining tavsiya etiladigan qiymati $\Delta_3=(5.5\div 6,5)\%$ ga teng bo'ladi.

Berdo *11* o'rnatilgan brus *10* ning soat strelkasiga qarshi (erkin yurish) tebranish jarayonida prujina *15* buraladi va energiyani to'playdi, berdo *11* o'rnatilgan brus *10* ning soat strelkasi yo'nalishi bo'ylab ishchi rejimida prujina *15* teskari buraladi va to'plangan energiyani beradi, berdo *11* ga yordam berishi natijasida ipni kerakli kuch bilan urilishi zichlashishi sodir bo'ladi.

Ushbu holatda to'quv dastgohida to'qimani shakllantirish jarayonining sifati ta'minlanadi.

Qayishqoq energiya to'plovchining parametrlarini asoslash uchun ma'lum bo'lgan uslubdan foydalanib aylanma bikirlikni aniqlash formulasi olindi:


$$C_n = \frac{I_{np}\omega_p^2}{\varphi_\delta^2}, \quad (5)$$

bunda I_{np} -richag inertsiasining keltirilgan momenti; ω_p^2 -batan richagining burchak tezligi; C_n - prujinaning aylana bo'ylab bikirliki; φ_δ^2 -prujinaning buralish burchagi.


Bu holatda prujinaning maksimal buralish burchagi:

$$\varphi_{\delta max} = \frac{\omega_p}{\sqrt{C_n/I_n}} \cdot \quad (6)$$

Sonli yechim asosida bog'liqlik grafiklari qurildi:



7-rasm. Energiya to'plovchi qayishqoq elementning aylanma bikirligining batan richagining chastotasiga bog'liqlik grafiklari



1- $I_n=0.009 \text{ kgm}^2$; 2- $I_n=0.011 \text{ kgm}^2$; 3- $I_n=0.013 \text{ kgm}^2$

8-rasm. Batan richagining tayanchida doiraviy prujinaning siqilishidagi maksimal momentini prujinaning aylanma bikirligining o'zgarishiga bog'liqlik grafiklari


Bosh valning aylanish chastotasi 355 ayl/min ($5,9 \text{ s}^{-1}$) dan 750 ayl/min ($12,5 \text{ s}^{-1}$) gacha ko'payganida richag energiya to'plovchi prujinasi aylanma bikirlik koeffitsiyenti qiymatlari inertsia momenti $0,009 \text{ kgm}^2$ bo'lganda, $2,8 \cdot 10^2 \text{ Nm/rad}$ dan $12,75 \text{ Nm/rad}$ gacha chiziqli bo'lmagan ortib borishi chiziqli bo'lmagan qonuniyatlarda bo'ladi. Tajriba natijalariga asosan prujina aylanma bikirligi koeffitsiyenti qiymati $7,5 \cdot 10^2 \text{ Nm/rad}$ bo'lganligini inobatga olinsa, bosh valni aylanish chastotasi (650÷700) ayl/min ($10,8 \div 11,6 \text{ s}^{-1}$) bo'lishi maqsadga muvofidir. Bunda uch yelkali richag inertsia momenti ($0,011 \div 0,012$) kgm^2 bo'lish tavsiya etiladi.

Ta'kidlash kerakki prujina bikirligini ko'payishi qarshilikni ko'paytiradi. 8-rasmda batan uch yelkali richagining aylanma bikirlik koeffitsiyentini bosh valning burovchi momentiga o'zgarish grafiklari keltirilgan. Bikirlik $6,5 \cdot 10^2 \text{ Nm/rad}$ dan $12 \cdot 10^2 \text{ Nm/rad}$ gacha ko'payganida va inertsia momenti $0,011 \text{ kgm}^2$ bo'lganida batan mexanizmi bosh validagi burovchi moment 44 Nm dan 183,5 Nm gacha nochiziqli bog'lanishda ortib boradi. Inertsia momentini ortishi bilan burovchi moment qiymatlari ham ko'payadi. Uch yelkali richag energiya to'plovchi prujinasi aylanish bikirligi tavsiya qiymatlarida, ya'ni $C_H = (6,5 \div 7,5) \cdot 10^2 \text{ Nm/rad}$ bo'lganida bosh valdagi burovchi moment (45÷65) Nm dan ortmaydi.

To'quv dastgohlarini batan mexanizmlarining aylanma prujinali uch yelkali richagiga quyidagi kuchlarning momentlari ta'sir qiladi: inertsia kuchining momenti; aylanma prujinaning qayishqoq va dissipativ kuchlarining momentlari; richag sharniridagi ishqalanish kuchining momenti; urilish kuchini qarshilik momenti; birikkan mushtumchalar tomonidan hosil bo'layotgan kuchlarning momenti; richag yelkalarini og'irlik kuchlarining momenti. Dalamber prinsipini qo'llab to'quv dastgohi mushtumchali batan mexanizmi uch yelkali richagining muvozanat sharti topamiz va u quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$I_p \frac{d^2 \varphi_p}{dt^2} = P_b(\varphi_k) \cdot l_1 k - m_2 g l_2^1 \cos(\alpha - \varphi_p) - m_3 g l_3^1 \cdot \cos(\alpha - \varphi_p + \beta) - m_1 g l_1^1 \cdot \cos \varphi_p - M_{TP} - b_k \frac{d\varphi_p}{dt} - C_k \varphi_p. \quad (7)$$

bunda φ_p - uch yelkali richagning burchak siljishi; $P_b(\varphi_k)$ -mushtumcha tomonidan paydo bo'luvchi kuchlar; l_2 -richagning ikkinchi va uchinchi yelkalarining uzunligi; k - batan rolklari elementlarining bikirligi va dissipatsiyasini hisobga oluvchi koeffitsiyent; m_1, m_2, m_3 -richag yelkalarining og'irligi; I_p -batan richagining keltirilgan inertsia momenti; $l_1^1; l_2^1; l_3^1$ -aylanish o'qidan richag yelkalarining og'irlik markazining nuqtasigacha bo'lgan masofa; α ,



1-aylanma prujinani hisobga olmagan holda;
2-aylanma prujinani hisobga olgan holda

9-rasm. Batan mexanizmi richagi arqoqining harakat qonuniyati

hosil qiladi, $\Delta\varphi_3$ qiymatlari (0,02÷0,035) rad oralig'ida bo'ladi. Bunda to'qima hosil qilishda ipni zichlanishi oralig'i bo'lib, sifatli mato olinadi.

Nazariy tadqiqotlar asosida tavsiya qilingan parametrlarni inobatga olib batan mexanizmi tajriba nusxasi tayyorlandi va tajribalar o'tkazildi.

Dissertatsiyaning **“To'quv dastgohi qayishqoq elementli mushtumchali batan mexanizmining parametrlarini asoslash bo'yicha o'tkazilgan tajribaviy tadqiqotlar natijalari va tahlili”** deb nomlangan uchinchi bobida bosh valdagi burovchi momentni, aylanish chastotasini, berdoni ipga ta'sir kuchini mushtumchali mexanizm roligi rezinali vtulkasi bikirligiga, zichlanayotgan ip yukiga (qarshilikka) bog'liq ravishda o'zgarish qonuniyatlari keltirilgan. To'liq omilli tajribaviy tadqiqotlar asosida mushtumchali mexanizm parametrlarini maqbul qiymatlari asoslangan.

Qayishqoq elementli mushtumchali mexanizmni o'zgaruvchan yuklanish va kinematik parametrlar bo'yicha tadqiqotlarni o'tkazish uchun elektrtensometrlash sxemasiga asosan amalga oshirildi.


Natijalar 11-rasmda keltirilgan. Bunda tavsiya etilayotgan variant uchun bosh valdagi burovchi momentning amplitudasi qayishqoq elementlar tomonidan amortizatsiyalanishi hisobiga 105 Nm gacha pasayadi, berdoning arqoq ipiga ta'sir kuchi esa 80 N gacha kamayadi. Bizga ma'lumki, to'qima qalinligini kamaytirish bilan, ya'ni 12 donada 1,0 cm to'qimada yuklanish kamayadi, mushtumchali batan mexanizmining mavjud variantida o'rtacha qalinlikdagi to'qimani shakllantirishda

β -richag yelkalari orasidagi doimiy burchaklar; C_k, b_k -aylanma bikirlik va richag tayanchidagi prujinaning dissipatsiyasini hisobga oluvchi koeffitsiyent.

Olingan matematik ifodani sonli yechimga ko'ra batan mexanizmi uch yelkali richagini harakat qonuni aniqlandi (9-rasm).


Batan berdosini burchak tebranishi mavjud konstruksiyada (prujina burilganida), yuqori qismda (nuqtada) tezda orqaga qaytishi kuzatiladi (9-rasm, 1-grafik). Prujina inobatga olinganda berdo yuqori ipni zichlash qismida biroz turib keyin tebranishlar

bosh valdagi burovchi momentning amplitudasi 113 Nm gacha kamayadi, berdoni arqoq ipiga ta'sir kuchi esa 88 N gacha kamayadi.



1-elektrdvigatel; 2-yetaklovchi shkiv; 3-tasma; 4-yetaklanuvchi shkiv; 5-mushtumchali reduktor; 6-berdo; 7, 8-tenzodatchiklar; 9-sezgir naushnik; 10-tokosyomnik; 11-UT4 rusumli kuchaytirgich; 12-ASP-128; 13-kompyuter.


10-rasm. Tajribalarni o'tkazishning elektrotenzometrik sxemasi



1,2- mavjud konstruksiya uchun; 3, 4-tavsiya etilayotgan konstruksiya uchun; 3- $M_a=f(\Pi_T)$ -6308 TMKSH rusumli rezinani qo'llashda; 4- $M_a=f(\Pi_T)$ -7337 MVC rusumli rezinani qo'llashda


12-rasm. To'quv dastgohi bosh validagi burovchi momentning o'zgarishini 1,0 cm to'qimani shakllantirishda arqoq iplarining sonini o'zgarishiga bog'liqlik grafigi

12-rasmda ko'rsatilgan grafiklarni tahlili 1,0 cm to'qimada arqoq iplarini sonini oshirish, uni shakllantirishda mavjud va tavsiya etilayotgan mushtumchali batan mexanizmlarini qo'llashda, to'quv dastgohining bosh validagi burovchi momentni ortishiga olib kelishini ko'rsatdi. Bu arqoq iplari sonining ortishi bilan berdoga tushayotgan yuklanishlarni ortishi bilan izohlanadi.



7337 MBS rusumli rezinada

11-rasm. O'rtacha qalinlikdagi to'qimani shakllantirishda (1 sm.da 22 ta ip) bosh validagi burovchi momentning va berdoni arqoq ipiga ta'sir kuchlari qonuniyatlarini xarakterlovchi ossillogrammalari



1-mavjud mushtumchali batan mexanizmi uchun; 2, 3-tavsiya etilayotgan mushtumchali batan mexanizmi uchun; 3- $F_b=f(\Pi_T)$ -6308 TMKSh rusumli rezinani qo'llashda; 4- $F_b=f(\Pi_T)$ -7337 MVC rusumli rezinani qo'llashda

13-rasm. To'qimani shakllantirishda 1,0 cm to'qimada iplar sonining o'zgarishiga berdoni arqoq ipiga ta'sir kuchining o'zgarishini bog'liqlik grafigi

Arqoq iplarini sonini 18 tadan 22 tagacha ortishida mushtumchali batan mexanizmining bosh validagi burovchi moment 113 Nm dan 125 Nm gacha ortadi, batanda 6308-TKMSH rusumli rezinadan (aylanma bikirligi $3,75 \cdot 10^4$ Nm/rad) tayyorlangan qayishqoq elementli mushtumchali mexanizmlarni qo‘llashda esa burovchi moment 98 Nm dan 105 Nm gacha, mushtumchali mexanizmning tarkibiy roliklarining amortizatsiyalovchi vtulkasi sifatida 7337-MVC rusumli rezinani qo‘llashda bosh valdagi burovchi moment 95 Nm dan 100 Nm gacha ortadi xolos. Shuning uchun bosh valdagi burovchi momentni iloji boricha maksimal kamaytirish va mashinaning iste'mol quvvatini kamaytirish uchun to‘quv dastgohlarining mushtumchali batan mexanizmlarini roliklarining amortizatsiyalovchi vtulkalarini tayyorlash uchun 7337 MVC rusumli (aylanma bikirligi: $0,54 \cdot 10^4$ Nm/rad) rezinani qo‘llash tavsiya etiladi.

13-rasmda to‘qimani shakllantirishda 1,0 cm da arqoq iplarining zichlashuvida berdoni arqoq ipiga ta’sir kuchini o‘zgarishining grafik bog‘liqligi ko‘rsatilgan.

Olingan grafik bog‘liqliklarni tahlili 1,0 cm shakllantirilayotgan to‘qimada arqoq iplari sonini oshirilishida berdoga yuklanishni ortishiga olib kelishini ko‘rsatdi. Bunda amortizatsiyalovchi rezinali vtulka ushbu yuklanishni bir muncha kamaytirish imkonini beradi. Mushtumchali batan mexanizmining mavjud variantida 1,0 cm shakllantirilayotgan to‘qimaga arqoq iplari sonini oshirish bilan berdoni arqoq iplariga ta’sir kuchi $P_t=22$ dona da 95 N ga, $P_t=18$ donada, $F_b=89$ N ga ortadi.

To‘quv dastgohining tavsiya etilayotgan qayishqoq elementli mushtumchali batan mexanizmining parametrlarini asoslash uchun ko‘p omilli tajribalar o‘tkazildi.

Bunda to‘qimani shakllantirish jarayoniga burovchi momentlarning asosiy ta’sirini hisobga olgan holda bosh valda quyidagi omillar tanlab olindi: rolikni rezinali vtulkasining bikirligi; batan richagining sharnirida o‘rnatilgan energiyani to‘plovchi prujinaning aylanma bikirligi; batan mexanizmi bosh valining aylanishlar chastotasi.

Chiquvchi omillar sifatida olinayotgan to‘qima sifatini tavsiflovchi tanda ipining mustahkamligi qabul qilindi.

Regressiya tenglamasi quyidagi ko‘rinishda olindi:

$$Y_R = 148,14 + 2,0933 x_1 + 4,7033 x_2 + 7,8033 x_3 + 0,1817 x_1 x_2 - 0,51 x_1 x_3 - 0,6183 x_2 x_3 + 0,1767 x_1 x_2 x_3. \quad (8)$$

To‘liq omilli tajribalar asosida quyidagi asoslangan parametrlar olindi: mushtumchali mexanizm roligining rezinali vtulkasining aylanma bikirligi $0,5 \cdot 10^4$ Nm/rad; mushtumchali mexanizm prujinasining aylanma bikirligi- $7,5 \cdot 10^4$ Nm/rad; mushtumchali mexanizm bosh valining aylanishlar chastotasi 700 min^{-1} Nm/rad. Ushbu qiymatlarda tanda ipining mustahkamligini eng yuqori qiymatlari ta’minlanadi, shu bilan birga olinadigan to‘qimaning sifati ham ta’minlanadi.

Dissertatsiyaning **“Tavsiya etilgan qayishqoq elementli mushtumchali batan mexanizmi to‘quv dastgohini qiyosiy ishlab chiqarish sinovlari natijalari va iqtisodiy samaradorligi”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida

modernizatsiya qilingan to'quv dastgohini "ALP TEXTILE" MCHJ dagi va "Kogon Nur Tekst" MCHJ korxonalaridagi qiyosiy ishlab chiqarish sinov natijalari keltirilgan. Shuningdek tavsiya etilgan konstruksiyani qo'llashdan olinadigan iqtisodiy samaradorlikni hisobi berilgan.

To'quv dastgohlarining mavjud va tavsiya etilayotgan mushtumchali mexanizmlarini ishlab chiqarish sharoitida taqqoslash sinovi natijalariga asosan, tavsiya etilayotgan variantda nuqsonlarni kamaytrishi hisobiga olinayotgan to'qimaning sifati ($5,0 \div 7,0$) ga oshadi, to'qimaning tanda ipi bo'yicha mustahkamligi (25 ± 30) % gacha ortadi. Bu holatda to'quv dastgohi ish rejimlarini oshirish mumkin bo'ladi va natijada unumdorlik 10 % ga ortadi. Bundan tashqari dastgohning ishlaymay turib qolishi sezilarli darajada kamayadi.

To'quv dastgohlarida qayishqoq elementli mushtumchali mexanizmlarni qo'llashda "Kogon Nur tekst" MCHJ va "ALP TEXTILE" MCHJ ishlab chiqarish korxonalarida 738,0 million so'mni miqdorida yillik iqtisodiy samaradorlik tashkil etdi.

XULOSA

1. Mavjud mushtumchali mexanizmlar konstruksiyalarining sxemalarini tahlil qilish natijasida, mushtumchali mexanizmlarning ishonchliligi va ish resurslarini oshirishda juftliklardagi ortiqcha bog'lanishlarni oshirish va kamaytirishda qayishqoq elementlarni qo'llash bilan elementlarni harakatchanlik darajasini oshirish muhim ahamiyatga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Konstruksiyalarni takomillashtirish bo'yicha bajarilgan ishlar va hisoblash uslublarini tahlili, texnologik mashinalarning uzatma va mexanizmlari uchun qayishqoq elementli mushtumchali mexanizmlarni hisoblash uslublari yetarlicha ishlab chiqilmaganligini ko'rsatdi.

2. Qayishqoq elementli mushtumchali mexanizmlarning kinematik juftliklarining harakatchanlik darajasi va ortiqcha bog'lanishlarni bartaraf etish uslubi ishlab chiqildi.

Analitik uslub bilan qayishqoq elementli batan mexanizmining kinematik tavsiflari olindi. To'quv dastgohlari batan mexanizmini almashtiruvchi shatun va koromisloning maksimal burchak siljishini hisoblash uchun ifoda aniqlandi.

3. Batan mexanizmi kinematikasi masalasini sonli yechimi orqali koromislo (berdo)ning burchak siljishini mexanizmdagi rezinali vtulkaning deformatsiyalanishini hisobga olgan holda qonuniyatlari olindi. Urilish zonasida koromisloning burchak siljishining miqyosini mushtumchali mexanizmning rezinali vtulkasini deformatsiya qiymatlarining o'zgarishiga grafik bog'liqligi qurildi.

4. Batan uch yelkali richagining richag sharnirida o'rnatilgan prujinali energiya to'plovchini hisobga olgan holda tebranishini matematik modeli olindi. Masalani yechish bilan batan richagining aylanma chastotasiga bog'liq holda qayishqoq energiya to'plovchining buralishga bikirligini grafik bog'liqligi va batan richagi tayanchidagi doiraviy prujinaning siqilishining maksimal momentini prujinaning aylanma bikirligiga bog'liqligining grafigi qurildi.

5. Batan mexanizmining berdosi yetarli miqdordagi energiyani to'plashini ta'minlashi uchun $I_{pr}=0,012 \text{ kgm}^2$ da C_n ni $(0,9 \div 1,05) \cdot 10^3 \text{ Nm/rad}$

oralig'ida tanlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Energiya to'plovchi prujinaning aylanma bikirligini oshirish, siqilish maksimal momentning ortishiga olib keladi. Parametrlarning tavsiya etiladigan qiymatlari:

$$C_n=(1000,1050) \text{ Nm/rad}; \quad w_{\text{pr}}=(35,40) \text{ s}^{-1}; \quad I_{\text{pr}}=(0.01,0.013) \text{ kgm}^2.$$

6. To'quv dastgohi batan mexanizmining prujinali uch yelkali richagini tebranishi modellashtirildi. Batan richagining tebranishini differensial tenglamasining sonli qiymatlari asosida batan osti validagi burovchi momentning o'zgarish bog'liqligi va batan mexanizmi richagining berdosi harakati qonuniyatlarini aylanma prujinani hisobga olgan holda olindi.

7. Tenzometrik uslubni qo'llash orqali mushtumchali batan mexanizmining bosh validagi kuchlarni o'zgarishiga mavjud va tavsiya etilayotgan qayishqoq elementli batan mexanizmlarida to'qima ishlab chiqarishda ipga ta'sir etuvchi kuchlarning ta'sir qonuniyatlari olindi. Bunda tavsiya etilayotgan mexanizmdagi burovchi momentning maksimal qiymati (15÷20) gacha, berdoning ta'sir kuchi esa (10÷12) % gacha kamayadi.

8. To'quv dastgohining bosh validagi burovchi momentning to'qimani shakllantirish davrida 1,0 cm dagi arqoq iplari sonining o'zgarishiga bog'liqligi qurildi. Bosh validagi burovchi momentni maksimal pasaytirishda mashinaning quvvat iste'moli ham pasayishi aniqlandi. To'quv dastgohi batan mexanizmining amortizatsiyalovchi vtulkali rolidlari uchun 7337 MVC rusumli (aylanma bikirligi: $0,54 \cdot 10^4 \text{ Nm/rad}$) rezinani qo'llashni tavsiya etiladi.

9. To'qimani shakllantirishda berdoni arqoq ipiga ta'sir kuchini o'zgarishining 1,0 cm to'qimadagi iplar sonining o'zgarishiga grafik bog'liqligi qurildi. Olingan grafik bog'liqliklarni tahlili shakllanayotgan 1,0 cm to'qimadagi iplar sonini oshirishda berdoga tushayotgan yuklanishni ortishiga olib kelishini ko'rsatdi. Shunday qilib, mushtumchali batan mexanizmining mavjud variantida shallantirilayotgan 1,0 sm to'qimadagi iplar sonini ortishi bilan berdoni arqoq ipiga ta'sir kuchi $P_t=22$ dona bo'lganida 95 N gacha ortadi, $P_t=18$ dona bo'lganida esa $F_b=89$ N gacha ortadi.

10. To'liq omilli tajribalar asosida mushtumchali mexanizm roligi rezinali vtulkasining aylanma bikirligi- $0,5 \cdot 10^4 \text{ Nm/rad}$; mushtumchali mexanizm prujinasining aylanma bikirligi- $7,5 \cdot 10^4 \text{ Nm/rad}$; mushtumchali mexanizm bosh valining aylanishlar chastotasi-650 ayl/min ($10,8 \text{ s}^{-1}$) asoslangan parametrlari olindi. Ushbu qiymatlarda tanda ipining mustahkamligining eng yuqori qiymatlari ta'minlanadi, shu bilan birga olingan to'qimaning yuqori sifati ham ta'minlanadi.

11. To'quv dastgohlarining mavjud va tavsiya etilayotgan mushtumchali mexanizmlarini ishlab chiqarish sharoitida taqqoslash sinovi natijalariga asosan, tavsiya etilayotgan variantda nuqsonlarni kamaytirishi hisobiga olinayotgan to'qimaning sifati (5,0÷7,0) ga oshadi, to'qimaning tanda ipi bo'yicha mustahkamligi (25±30)% gacha ortadi. Bu holatda to'quv dastgohi ish rejimlarini oshirish mumkin bo'ladi va natijada unumdorlik 10 % ga ortadi. Bundan tashqari dastgohning ishlamay turib qolishi sezilarli darajada kamayadi.

12. To'quv dastgohlarida qayishqoq elementli mushtumchali mexanizmlarni qo'llashda "Kogon Nur teks" MCHJ va "ALP TEXTILE" MCHJ ishlab chiqarish korxonalarida 738,0 million so'm miqdorida yillik iqtisodiy samaradorlik tashkil etdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.Т.90.01. ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ НАМАНГАНСКОМ
ИНЖЕНЕРНО-СТРОИТЕЛЬНОМ ИНСТИТУТЕ**

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ХУДАЙБЕРДИЕВА МАХЛИЁ АБДУКАХОРОВНА

**РАЗРАБОТКА КОНСТРУКЦИИ И СТРУКТУРНОЙ
КИНЕМАТИЧЕСКИЙ, ДИНАМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ БАТАННОГО
МЕХАНИЗМА С УПРУГИМИ ЭЛЕМЕНТАМИ ТКАЦКОГО СТАНКА**

05.02.02-Теория механизмов и машин. Машиноведение и детали машин

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОР ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Наманган-2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министерства высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан под номером B2024.4.PhD/T3722.

Диссертация выполнена в Бухарском инженерно-технологическом институте.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-странице Научного совета (www.namdtu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:	Джураев Анвар Джураевич доктор технических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Кенжабоев Шукржон Шарипович доктор технических наук, профессор Собиров Холхужа Аббозович кандидат технических наук, доцент
Ведущая организация:	Ферганский государственный технический университет

Защита диссертации состоится на заседании научного совета PhD.03/30.12.2019.T.90.01 при Наманганском инженерно-строительном институте в 2025 году 22.10 в 10⁰⁰ часов. (Адрес: 160103 Наманган, улица Ислама Каримова, дом 12. Тел.: (+99869) 234-15-23, факс: (+99869) 234-15-23, e-mail: info@namdtu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского инженерно-строительного института (зарегистрирован под номером 67). (Адрес: 160103 Наманган, улица Ислама Каримова, дом 12. Тел.: (+99869) 234-15-23, факс: (+99869) 234-15-23, e-mail: info@namdtu.uz).

Автореферат диссертации разослан "07" 10 2025 года.
(Протокол рассылки № 72 от "31" 05 2025 года).



Н.Г. Байбобоев
Председатель Научного совета по присуждению
ученой степени, д.т.н, профессор

В.М. Турдалиев
Ученый секретарь Научного совета по присуждению
ученой степени, д.т.н, профессор

А.Х. Умурзаков
Председатель Научного семинара при научном совете
по присуждению ученой степени, д.т.н, доцент

ВЕДЕНИЕ (аннотация докторской (PhD) диссертации)

